




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**


**2023- YIL
YANVAR-IYUN**

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, Toshkent viloyatida jami **6585,0 mlrd.** soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,1 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari


Norasmiy sektor

Kichik korxonalar
va mikrofirmalar



2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni



1463

•Bino va inshootlar qurish

359

•Fuqarolik obyektlarini qurish

1015

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yilning shu davriga nisbatan 72,0 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 69,7 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 98,0 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 35,8 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 68,5 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.07.2023- y.	01.07.2022- y.	
Toshkent viloyati	2837	3945	72,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	124	200	62,0
Olmalik	133	210	63,3
Angren	163	277	58,8
Bekobod	115	181	63,5
Ohangaron	101	134	75,4
Chirchiq	272	334	81,4
Yangiyo'l	74	87	85,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	60	89	67,4
Ohangaron	62	86	72,1
Bekobod	92	118	78,0
Bo'stonliq	107	137	78,1
Bo'ka	111	137	81,0
Quyichirchiq	68	89	76,4
Zangiota	206	289	71,3
Yuqori Chirchiq	175	236	74,2
Qibray	289	411	70,3
Parkent	100	114	87,7
Piskent	56	86	65,1
O'rta Chirchiq	149	213	70,0
Chinoz	92	136	67,6
Yangiyo'l	136	201	67,7
Toshkent	152	180	84,4



2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, %da


Qibray (10,2)



Chirchiq sh. (9,6)



Zangiota (7,3)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyun oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	6585,0	1256,7	3744,2	1584,1
shaharlar:				
Nurafshon	354,7	27,0	310,4	17,3
Olmaliq	929,2	738,0	147,0	44,2
Angren	187,0	4,7	153,0	29,3
Bekobod	230,9	111,2	100,1	19,6
Ohangaron	109,4	0,0	94,2	15,2
Chirchiq	290,4	71,7	201,3	17,4
Yangiyo'l	185,7	0,1	164,2	21,4
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	211,2	0,0	190,8	20,4
Ohangaron	228,7	1,9	177,8	49,0
Bekobod	68,6	0,0	40,3	28,3
Bo'stonliq	229,6	28,1	70,3	131,2
Bo'ka	165,9	0,0	143,6	22,3
Quyichirchiq	370,3	0,4	315,7	54,2
Zangiota	616,2	0,5	423,8	191,9
Yuqorichirchiq	552,0	69,6	320,9	161,5
Qibray	649,4	183,5	250,2	215,7
Parkent	138,2	0,0	45,0	93,2
Piskent	117,7	0,0	101,1	16,6
O'rta Chirchiq	290,9	13,7	183,7	93,5
Chinoz	116,5	0,0	72,6	43,9
Yangiyo'l	208,3	6,3	89,7	112,3
Toshkent	334,2	0,0	148,5	185,7



2023- yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1256,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 104,8 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,6 % punktga kamayib, 19,1 %ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,8 %i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,9 %ni tashkil etgan holda 3744,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, %da

56,8

2023- yil
yanvar-iyun

58,2

2022- yil
yanvar-iyun



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Quyichirchiq tumani (423,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 6,4 %), Zangiota tumani (320,9 mlrd. so'm yoki 4,9 %), Bo'ka tumani (315,7 mlrd. so'm yoki 4,8 %)ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 24,1 %ni tashkil etdi yoki 1584,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,5 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun

1203,5
mlrd. so'm


2023- yil yanvar-iyun

1584,1
mlrd. so'm

22,2%

24,1 %

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **146,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6438,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,2 %** va **97,8 %**ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Ulushi %da



2023- yil
yanvar-iyun



2022- yil
yanvar-iyun

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi %da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 22,6 %ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 9,7 % punktga kamayib, 41,2 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 12,0 % punktga ko'payib, 36,2 %ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 17,9 %ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 7,1 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,1 % (7,2 % punktga ko'paydi)ni tashkil qilmoqda.



ulushi %da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 24,5 % punktga kamaydi va 5,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 94,9 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 24,5 % punktga ko'paydi.



**Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi**



**Kichik korxonalar va
mikrofirmalar
ulushi**



2022- yil
yanvar-iyun

2023- yil
yanvar-iyun

Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70